

I. Umumiy ma'lumotlar

Loyihaning to'liq nomi

“Nazariy va amaliy mashg’ulotlarni masofaviy o’tkazish uchun universitet rasmiy veb-saytidagi virtual kabinet” platformasi

Loyihaning qisqa nomi

Masofaviy ta’lim platformasi

Loyihaning qisqacha tavsifi

Bu loyiha O‘zbekistondagi oliy ta’lim muassasalari uchun ma’lumotlarni boshqarish va ta’lim jarayonlarini avtomatlashtirishga qaratilgan. Loyihaning asosiy maqsadi ta’lim sifatini oshirish, o‘qituvchilar va talabalar uchun qulay va intuitiv interfeys yaratish, nazoratni kuchaytirish va ta’lim jarayonlarini samarali boshqarishni ta’minlashdir. Loyiha doirasida ishlab chiqilgan axborot texnologiyalari (AT) platformasi talabalarning ma’lumotlarini boshqarish, nazariy va amaliy mashg’ulotlarni onlayn tarzda o‘tkazish va baholash, shuningdek, o‘quv materiallarini shakllantirish va chiqarish imkoniyatini beradi. Platforma HEMIS tizimi bilan integratsiyalashgan holda ishlaydi, bu tizim orqali talabalar va o‘qituvchilar o‘z ma’lumotlarini osonlik bilan boshqarishi mumkin. Loyihaning yana bir muhim jihati, dasturiy tizimda avtoproktoring moduli mavjud bo‘lib, u talabalarning imtihonlar vaqtida harakatini avtomatik kuzatib borish imkonini beradi. Bu orqali akademik adolatlilikni ta’minlash va imtihonlarning shaffofligini oshirish imkonini yaratadi. Loyiha yordamida oliy ta’lim tashkilotlari zamonaviy ta’lim standartlariga mos kelishi, ta’lim jarayonlarini global darajada raqobatbardosh va samarali boshqarish imkoniyatlarini kengaytirish imkoni paydo bo‘ladi

Loyiha turi

Axborot tizimi

Idoralararo axborot tizimi / resurs

Ha

Shaxsiy ma'lumotlardan foydalanadi

Ha

Tizim / resurs mavjud va joriy etilgan

Yo'q

Tashkilotning yuridik manzili

Manzil № 1: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi 49

Loyihani amalga oshirish uchun mas'ul shaxslar

FISH: Sayfiev Jasurbek Fazlidinovich

Telefon raqami: 946515125

Email: sayfiev@gmail.com

Yaratish, takomillashtirish uchun asos

Normativ-huquqiy hujjat nomi: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 7 fevraldagi "Iqtisodiyot sohalari uchun kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-62-son qarori "2024 — 2027 yillarda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida kadrlar tayyorlash tizimini samarali yo'lga qo'yish, ilmiy salohiyatni oshirish va moddiy-texnik bazani mustahkamlash bo'yicha "Yo'l xaritasi"" nomli 2-ilovasining 10-bandi

Normativ-huquqiy asos raqami: PQ-62, 07.02.2024

Maqsadi, vazifalari va qo'llanish doirasi

Maqsadlar: - Oliy ta'lim muassasasida masofaviy va sirtqi ta'lim shaklida, shuningdek kunduzgi ta'lim shaklining mustaqil ta'limida o'qitishni masofaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llagan holda samarali tashkil etish. Masofaviy ta'lim talabalari 100% shu ATdan foydalanishadi. - Masofaviy, sirtqi va mustaqil ta'limda ishtirok etuvchi professor-o'qituvchilar va talabalarni kerakli o'quv materiallari, topshiriqlar va boshqa ma'lumotlar bilan ta'minlash orqali ta'lim sifatini oshirish va o'quv materiallarini elektron shaklga o'tkazish 100 %ga amalga oshirladi; - Professor-o'qituvchilar va talabalarining mehnat samaradorligini oshirish 2 va 3 barvarida ko'tarildi, ma'lumotlar shaffofligini va xavfsizligini ta'minlash, ta'lim muassasasida yuritiladigan hujjatlarni raqamlashtirish jaryoni qog'ozbozlik 100% yoqotildi, boshqaruv va rahbar xodimlarning qaror qabul qilishiga ko'maklashish hamda ta'lim xizmatlarini ko'rsatish sifatini oshirishdan iborat; - Professor-o'qituvchilar va talabalar uchun qulay va sodda interfeys bo'lishi; - Loyihani amalga oshirishdan asosiy maqsad ta'lim protsessini yanada effektivlashtirish va to'la qonli nazorat olib borish avtoproktoring texnologiyasi qo'llanish orqali 100% lik shaffoflikni shakillantirladi. - Texnik xizmat ko'rsatish vaqtini 48 soatdan oshmasligini ta'minlash. - HEMIS bilan integratsiya: 100% mos keluvchi integratsiya darajasi. - O'quv jarayonlarining avtomatlashtirilganligi: 100% jarayonlar avtomatlashtirilgan - Talabalar va professor-o'qituvchilar ishtirokini 80% dan yuqori darajada ushlab turish. - Xavfsizlik tizimi uchun har yili mustaqil audit o'tkazish - ATni OTM

uchun yillik elektr energiya va boshqa xarajatlarni 20% kamaytirish orqali samaradorlikka erishish.

Vazifalar: - Masofaviy, sirtqi va kunduzgi ta'limning mustaqil ta'lim soatlarini masofaviy ta'lim texnologiyalari asosida samarali tashkil etish; - HEMIS dasturiy tizimi bilan integratsiyalangan professor-o'qituvchilar va talabalar profilini shakllantirish; - BigBlueButton texnologiyasi asosida onlayn darslarni tashkillashtirish; - Professor – o'qituvchilarga o'quv modullari bo'yicha o'z video, audio va matnli materiallarni joylashtirish imkonini yaratish; - Talabalarga berilgan topshiriqlar bo'yicha bajarilgan vazifalarni onlayn tarzda topshirish imkonini yaratish; - Talabalar shaxsini dasturiy tarzda aniqlash va ularni bilimini onlayn tarzda baholashda avtoproktoring va fays kontrol qism modullaridan foydalanish; - Talabalar bilimlarini baholash uchun test imtihonlarini tashkillashtirish, o'tkazish va natijalarini reyting qaydnomalariga yozish; - Talabalarning fanlar bo'yicha jamlanma qaydnomalarini shakllantirish va uni HEMIS bilan integratsiya qilish; - Dasturiy tizimda HEMIS bilan integratsiyalashgan tarzda o'qitishni tashkillashtirish: HEMISdan talabalar, professor-o'qituvchilar, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar, semestrlar, o'quv guruhlar, fanlar, ishchi o'quv rejalar kabi ma'lumotlarni olish, HEMIS esa talabalarning fanlar bo'yicha joriy, oraliq, yakuniy imtihonlari natijalarini haqidagi ma'lumotlarni avtomatik yozishni amalga oshirish orqali o'quv mashg'ulotlarini samarali tashkillashtirish; - Avtoproktorin texnologiyasi bilan nazorat qilish odam omilisiz vebkamera, veb-brauzer va klaviatura onlayn nazoratini boshqarish imkonini berish. Ushbu mezonlar va ko'rsatkichlar ATni yaratish jarayonida erishilishi kerak bo'lgan maqsadlar va vazifalarni aniq va samarali tarzda amalga oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa nafaqat axborot tizimining yuqori sifatli ishlashini, balki foydalanuvchilar uchun qulay va samarali ta'lim muhitini yaratishni ham ta'minlaydi.

Topshiriqqa muvofiq amalga oshirish muddati

Boshlanish vaqti: 01.03.2024

Yakunlash vaqti: 31.08.2024

II Asosiy texnik xususiyatlar haqida ma'lumotlar

Loyiha-texnik hujjatlarini ishlab chiquvchi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Ta'limning dasturiy ta'minot va ma'lumotlar bazasi bo'limi

Elektron shaklga o'tkaziladigan xizmatlar ro'yxati

1. O'quv rejalari va dasturlarni elektron shaklda tashkil etish
2. O'quv materiallarini (darsliklar, ma'ruzalar, videolar) elektron kutubxonada joylashtirish
3. Onlayn imtihon testlar va so'rovnomalar o'tkazish
4. Masofaviy o'qitish texnologiyalari orqali online darslarni tashkillashtirish

Axborot tizimining asosiy quyi tizimlari

1. "Administrator" quyi tizimi
2. "Fanlar bo'yicha video, audio va matnli o'quv materiallarini yuklash" quyi tizimi
3. "Onlayn o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish" quyi tizimi
4. "Feys kontrol" quyi tizimi
5. "Fanlardan nazoratlar bo'yicha test imtihonlarini tashkillashtirish" quyi tizimi
6. "Test imtihonlarini onlayn tarzda o'tkazish" quyi tizimi
7. "Avtoproktoring" quyi tizimi
8. "Fanlar bo'yicha topshiriqlarni shakllantirish" quyi tizimi
9. "Topshiriqlar bo'yicha bajarilgan ishlarni yuklash" quyi tizimi
10. "Topshiriqlar bo'yicha bajarilgan ishlarni yuklash" quyi tizimi
11. "Talabaga berilgan vazifalarni baholash" quyi tizimi
12. "HEMIS tizimidan malumotlarni import qilish" quyi tizimi

Boshqa axborot tizimlari bilan o'zaro hamkorligi

1. HEMIS - Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi

Amaliy ma'lumotnomalar va klassifikatorlar

1. Ta'lim holati
2. Hududlar ro'yxati
3. Tumanlar ro'yxati
4. Tillar ro'yxati
5. Millatlar
6. Fanlar
7. Ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar klassifikatori
8. Ishchi o'quv rejalari
9. Ta'lim muassasalari ro'yxati

Ma'lumotlar bazasida ishlatiladigan yagona identifikator

1. ЖШШИР - Жисмоний шахнинг шахсий идентификация рақами
III Yaratish, foydalanish va foydalanishdan chiqarish haqidagi
ma'lumotlar

Autsorsing xizmatlaridan foydalanadi

Yo'q

Axborot tizimini ishlab chiquvchi

Yaratuvchi nomi: Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Ishlab chiqish jarayonining boshlanishi va yakunlanishini tasdiqlovchi
hujjat: PQ-62

«Kiberxavfsizlik markazi» ekspertizasi

"Kiberxavfsizlik markazi" DUK 2024 yil 31 iyuldagi 01-21-01/2290 sonli
xatiga asosan ijobiy ekspertiza xulosasi olingan